

V
MASHRAB ERMATOV




AN'ANAVTY XONANDALIK

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

MASHRAB ERMATOV

AN'ANAVIY XONANDALIK

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma



TOSHKENT
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI XALQ MEROSI NASHRIYOTI
2003

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DANASHTIY VA O'RGAZMA
KAFEDRASI

Ermatov Mashrab.

An'anaviy xonandalik: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma /Maxsus muharrir: R.Q. Qosimov. T. : A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2003. - 72b.

Sarlavhada: O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lif markazi.

BBK 85.314ya722

**O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining madaniyat va san'at sohasi
bo'yicha o'quv-uslubiy kengashi nashrga tavsiya etgan**

O'zbekiston davlat konservatoriysi An'anaviy ijrochilik kafedrasining dotsenti Mashrab Ermatovning mazkur o'quv qo'llanmasi musiqa va san'at akademik litsey va kollejlari, oliy o'quv yurtlarida an'anaviy xonandalik ixtisosligi bo'yicha saboq olayotgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan. Unda an'anaviy xonandalik san'atiga xos ijrochilik an'analari yoritilgan, hamda ustoz sanatkorlar uslubida ijro etilgan musiqiy namunalarnung notasi o'rinn olgan.

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston davlat konservatoriysi ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Maxsus muharrir:

Qosimov R.Q. — O'zbekiston Davlat Konservatoriysi An'anaviy ijrochilik kafedrasining mudiri, professor v.b.

Taqribchilar:

Tojiboyev M. — O'zbekiston davlat konservatoriysi An'anaviy ijrochilik kafedrasi katta o'qituvchisi, O'zbekiston xalq hofizi;

Xudoynazarov M. — A. Qodiriy nomli Toshkent davlat Madaniyat instituti, Xalq ashula va raqs ansamblı rahbarligi kafedrasi dotsenti.

KIRISH

Xonandalik san'ati musiqiy merosimizning uzoq o'tmishdan hozirgi kungacha yetib kelishida, shakllanishida va rivojida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Boy musiqa merosimizning jonli jarayonini belgilovchi omil ham ana shu xonandalik va sozandalik san'atidir. Musiqa merosimizda xalqimizning ko'p asrlik o'tmishi, qadriyatları, an'analari, ma'naviyat va ruhiyati kabi qator tarixiy jihatlar o'z aksini topgan. Shu bois bo'lsa kerak musiqashunos olimlar bunga nisbatan "Maqomlar xalqimiz o'tmishining ohanglardagi in'ikosi" deyishadi. Ijrochilik bilan bog'liq omillarda esa sozandalik asosiy ijo mezoni sifatida gavdalananadi. Shuning uchun ham o'tmish davomida, xonanda va sozandalar amaliyotida, turli va o'ziga xos milliy, ijrochilik bilan bog'liq an'analar, uslublar yuzaga kelgan. Bu an'analar xalqimizning hayoti bilan chambarchas bog'liqidir. Ya'ni, turmush tarzi, hududiy zonalari, mahalliy an'analari shular jumlasidandir.

Xalqimiz o'tmishini o'rganish va shunga munosib bo'lish, zamonamizning har bir kishisi uchun muqaddas burchdir. Davlatimizning "o'tmishi milliy qadriyatlariga va an'analariga asoslangan munosib kelajak barpo etish" qabilidagi da'vati ham, buyuk kelajak va shunga munosib barkamol avlod tarbiyasi bilan bog'liqidir. Shu nuqtai nazardan o'tmishni o'zlashtirish, ilmiy-nazariy tadqiq etish va ularni kelajak avlod namoyandalariga yetkazish hozirgi davr talab va ehtiyojlaridagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Xonandalik mezoni insoniyatning kamoloti, savyasi, ma'naviyat va ruhiyati bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etib kelgan san'at sohasidir. Xalqning har qanday holatida "ovozi tarannumi" bilan bog'liq amal eng muhim hisoblangan. Chunki, bizga yetib keladigan har qanday axborotlarni aksariyati "ovozi" vositasida amalga oshiriladi va biz "ovozi" orqali qabul qilamiz. Shu bois inson ruhiyatining ozug'i ham mukammal va sirli ovoz ekanligi doimo ta'kidlab kelindi. O'zbek xonandachiligidagi sirus-sinoatlarni, ularning betakror talqinlarini har tomonlama sifatli va arzigulik o'rganish, shu bilan birga yoshlar e'tiboriga yetkazish shu soha mutasaddi o'qituvchilarining burchi desak

mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek xonandalik ijrochiliga nazar solar ekanmiz, har bir vohada o'ziga xos xonandalik ijo an'analari shakllanganligining guvohi bo'lamiz. Ular o'z ijroviy xususiyatlari doirasida turlanadilar. Qo'shiqchilik, ashulachilik, laparchilik, xonandalik, hofizlik, yallachilik kabi ijo turlari shular jumlasidandir. Ularning har biri amaliyotda o'z o'rni, salohiyati, mavqeい va namoyandalariga egadir. Qayd etish lozimki, xonandalik bilan bog'liq har bir janr o'zining ichki qonuniyatlariga ega bo'ladi. Ijrochilikda esa, bu muhim xisoblanadi. Muhimligi, har qanday ijo uslubini to'g'ri o'rganish bilan bog'liqidir. Ayniqsa, an'anaviy ijo uslubi iste'dod, saboq va ko'p mehnat talab etadi.

Ushbu o'quv qo'llanmada an'anaviy xonandalik amaliyotidagi ayrim jarayonlarga zarur tushunchalar, maslahatlar, ko'rsatmalar va izohlar berib o'tishga jazm etildi. Shu nuqtai nazardan, qo'llanma maxsus musiqa va san'at akademik litseylari va kollejlari, musiqa Yonalishidagi oliy o'quv yurtlari talabalarining an'anaviy xonandalik mutaxassisligi sinfi uchun mo'ljallangan.

Mazkur qo'llanmada an'anaviy xonandalikka xos ayrim nazariy hamda amaliy uslubiy tavsiyalar jamlangan. Ya'ni, qo'llanma ikki qismidan iborat bo'lib, mumtoz xonandalik ijo amaliyoti bilan bog'liq ma'lumotlar, hamda xalq musiqasi yo'lida yaratilgan ashulalar va keksa avlod bastakorlarining mumtoz uslubdag'i asarlari keltirilgan. Musiqiy namunalar ustoz san'atkorlarning ijrolaridan, ularning uslubiga xos tarzda mualif tomonidan notaga olingan. Birinchi bo'limda: Mumtoz xonandalik xususida, xonandalikdagi ayrim ijo uslublarining ijrochilik amaliyotidagi ahamiyati yoritib berilgan. To'plamga kiritilgan asarlar maxsus tanlangan bo'lib, zamonaviy mumtoz ijrochiligidagi eng yetuk, ustoz xonanda va bastakorlarining ijodlaridan namunalar tanlangan. Shu bois ularga tegishli ma'lumotlar va asarlarning qisqacha sharhi keltirilgan. Yosh xonandalarning ashula ijrochilik san'atini o'zlashtirishlarida muhim hisoblangan "saboq an'analar" baholi qudrat yoritilgan. Ikkinci bo'limda bastakor va xonandalar ijodidan tanlangan musiqiy asarlarning nota namunalarini o'rinn olgan.

XONANDALIK SAN'ATI XUSUSIDA

O'zbek xonandalik san'ati qadim zamonlardan boshlab xalqimiz hayotining eng go'zal qadriyati va ma'naviyati negizida yuzaga kela boshlagan. O'tish davomida ular turli an'analar bilan sug'orilgan. Har bir vohada o'ziga xos ijro turlari shakllangan. Rivoji davomida esa, har biri o'z xususiyatlari asosida an'anaviylik kasb etishga tuyinli bo'lgan.

Ma'lumki, ovoz talqini musiqada eng mukammal ijro turi hisoblanadi. Mukammallik esa, o'z o'rniда sehr, joziba, nafosat, badiha va ruhiyat bilan bog'liq barcha his-tuyg'u va xususiyatlarni o'zida mujassam etadi. O'zbek xonandalik san'atining yetuk omillari ham shundadir. Demak, xonandalik, ijrochilik amaliyotining eng mukammal va zabardast yo'naliishi bo'lsa, uning mezonlari nimalardan iborat degan fikr tug'ilishi tabiiydir. Darhaqiqat, har qanday amalning o'z ichki va tashqi sifat-xususiyatlari bo'lgani kabi xonandalikda ham bir qator bu muammo bilan bog'liq jarayonlar mavjud.

O'zbek xonandalik san'ati amaliyotida azaldan o'ziga xos milliy ashulachilik xususiyatlari shakllangan. Bu avvalo ovoz talqini usslublari bilan bog'liq bo'lsa, keyinchalik vohaviy, mahalliy va shaxsiy darajada rivojlanib kelingan. Chunki, bu jarayonda ashulachining ovozi, ovoz sadolantirish uslubi, kuy ohangi va so'z talaffuzlari kabi jihatlari bir meyorda amalga oshirilishi lozimdir. Ijroda esa, uning saviyasi muhim hisoblanadi. Xonandanining saviyasini anglatadigan jihatlari: xonandanining ovoz imkoniyatlari (ya'ni ovozning diapozoni, tembri va hokazo), latifligi yoki hastaligi, dardi, ilmi, bilimi va shu kabilardir. Demak, xonandadagi eng muhim birlamchi jarayon ovozdir.

Odatga ko'ra, xonandalar orasida ovozlar turlichadir. Lekin uni ilmiy tadqiq etgan olimlar ham mavjud. Shulardan biri Dovud Mullaqandovdir. Olim 1959-yili chop etilgan "O'zbekiston xalq sozandalari" kitobidagi "O'zbek milliy xonandaligining ayrim xususiyatlari va turlari" maqolasida ovoz xususiyatlari haqida fikr yuritadi. U xonandalik amaliyotida mavjud bo'lgan ovozlarni uch turga bo'ladi va ta'riflab beradi. Olimning yozishicha ovoz talqinining 3 xususiyati mayuddir. Ya'ni: "binnigi" (dimog'da aytildigan ashula turi), "guligi" (tomoqda ijro etiladigan ovoz turi), "ishkami" (asosan ashula aytish paytida qoringa nafas olib aytadigan ashulachilar toifasi) ovozlar. Olim bu ovozlarni sharhlab, bu ovozlarning ayrim soxiblari misolida ko'rsatib beradi. Bu albatta to'g'ri tasavvur etishga imkon beradi. Jumladan: "binnigi" uslubining namoyandalari sifatida mashhur Xorazmlik hofizlar Matyusuf Xarratov va Sheroyi nomi bilan mashhur bo'lgan Madrahim Yoqubovni keltirgan. Farg'ona vodiysining ustoz san'atkorlaridan biri bo'lgan Jo'raxon Sultonovni "guligi" uslubda aytadigan

xonanda sifatida bayon etadi. D. Mullaqandov "ishkami" ovoz ijrochiligi uslubini har tomonlama qulay va o'ziga xosligi haqida yozib, eng yorqin ovozlar shu uslubda ijro etilishini qayd etib o'tadi. Bunday ovoz soxiblari qatoriga esa, buxorolik mashhur hofiz Domla Halim Ibodov, andijonlik ustoz san'atkorlar Abdulla Fayziyev (Abdulla taroq nomi bilan mashhur) va Berkinboy Fayziyevlar, farg'onlik Jamol xofiz G'iyosov kabilarning nomlarini keltiradi. Olimning, ovozlarni bu turlarga bo'lishi juda o'rinali. Lekin— deb yozadi musiqashunos S. Begmatov "Mumtoz xonandalik san'ati mezonlari" maqolasida, - O'zbekiston hududidagi hofizlar faoliyatlarida faqatgina bir turga itoat etib xonish qiladigan ashulachilar deyarli uchramaydi. Xonandalarning aksariyati ikki uslubda, qolaversa, qo'shimcha yana bir ijro uslubi-sun'iy (faltset) yo'li bilan bezab, xonish qilishga o'rganganlar. Ayniqa "guligi" ijro uslubi bilan "ishkami" ko'proq qorishib ketgan. Bu ijro uslubi amaliyotda ham, tinglovchilar orasida ham yoqimli, manzur ijrodir. Aynan mana shu uslubda ijrochilik yo'llarini shakllantirgan ijrochilik chuqur nafas, kuchli membr, keng diapozon mobaynida yangroq, tushunarli va yengil sadoli xonishga ega bo'ladi".

Shuni ta'kidlash kerakki, mumtoz asarlarni aytadigan xonanda rosmana bir uslubga tayanib qolsa ijobji natija bermaydi. Avvalo, ovoz talqini uslubini yaxshi o'zlashtirib olish muhimdir. Qolaversa, maqomlarni ijro etish juda katta mahorat talab etishini hammamiz bilamiz. Shuning uchun ashulachi asarni yaxshi ijro etish uchun ovozni har "kuya" soladi. Shunga intiladi. Mana shu jarayon har qanday xonanda uchun ehtiyyotkorlikni talab etuvchi davrdir. Ovozni to'g'ri tarannum etishni ustozlardan o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbilarmonchilikning oqibati yoqimsiz bo'lgan ovozlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ovozlarning turlari esa o'zbek ijrochiligidagi juda ko'p. Atoqli hofiz Fattohxon Mamadaliyev o'zlarining "Milliy musiqa ijrochiligi masalalari" nomli kitoblarida bir qator ovoz turlari xususida ma'lumotlarni bergenlar. Fattohxon Mamadaliyevning yozishlaricha o'zbek xonandaligida "Nor ovoz", "Tik ovoz", "Jarangdor ovoz", "Jarangdor kuvrak ovoz", "Kuyuk tik ovoz", "Xasta ishkami ovoz", "Bo'zak yoki moda ovoz", "Pang ovoz" kabi ovoz talqin etish yo'llari va turlari uchraydi.

Darhaqiqat, ijrochilik amaliyotida bunday hollar uchrashi muqarrar. Lekin azaldan insonlar eng go'zal va latif ovozga qarab intilganlar. Iloji boricha bu an'anani saqlashga harakat qilganlar. Chunki, ovoz talqini insoniyat ruhiyatiga ta'siri muhim omillardan biridir. Bu haqda ilk bor Sharqda mashhur olim-hakim Abu Ali Ibn Sino o'z tadqiqotlarida bayon etgan.

Ovoz talqini xususiyatlari musiqiy janr negizida

ham turlanadi. Doston ijrochiligi, maqom, katta ashula shular jumlasidandir. Bu o'rinda ovozlarga tegishli hududiy sifatlarni alohida qayd etish lozim bo'ladi.

Xonandalik san'atining ikkinchi muhim omili bu mavjud ovozni munosib talqiniga erishishdan iboratdir. Chunki, ashula ijrochiligining o'zi tovushni, ya'ni ovozni qay darajada talqin eta olish omiliga asoslanadi. Shu bois bu omil juda ham ko'p jihatlidir va olimlar tomonidan turlicha ifoda etiladi.

"Tovush, - deb yozadi S.Begmatov, turli sharoit va vaziyatda turlicha talqin etiladi. Uni shunchaki ijro (tarannum) etish mumkin. Shu bilan birga, uni mayin, latif, serjilo sayqallar bilan bezab, xarakterli, g'oyali va mazmunli talqin etish ham mumkin." Darhaqiqat, xonandaning holati ijro vaziyati taqozo etgan holda, har ijroda sharoit o'ziga xos tarzda o'zgaradi. Ana shu kutilmagan vaziyatlarni har doim yengish va benuqson mutanosib holatda talqinga erishish uchun xonandalik san'atidagi "mohirlik" xususiyatini shakllantirish lozimdir. Musiqashunos olim S.Begmatov xonandalarning ijro mahoratini ham o'ziga xos mezonlarini bayon etadi va ularni uch ko'rinishga ajratadi:

— havas qilgan ustozi yoki ko'ngliga mos ovoz sohibi ijrosiga taqlid etganlar;

— shunchaki talqin etuvchilar;

— o'z ovozini har tomonlama parvarishlab, mazmunli ovoz tarannumi darajasigacha yetib, merosda mavjud turli ijro uslublarining o'ziga yoqadigan eng go'zal jihatlarini o'zlashtirib, doimo izlanish va rivojanishga asoslangan holda shaxsiy talqiniga erishgan ijrochilar.

Birinchi va ikkinchi toifadagi xonandalar azaldan ko'pchilikni tashkil etib musiqiy meros jarayoniga daxilsiz bo'lganlar. Uchinchi toifadagi namoyandalar an'anuning avloddan-avlodga o'tishidagi, o'tmishni zamon bilan bog'lovchi va rivojini ta'minlovchi jonli jarayonga aloqador xonandalar deyish mumkin. Shu bois xonandalik amaliyatida ustozi-shogird an'anasi juda muhim ahamiyatga egaligi qayd etiladi. Chunki, bu an'anani tarkibida xonanda uchun eng zarur hisoblangan amallar saboq jarayonlari sifatida tarkib topgan. Ustozi-shogird an'anasi shogirdning o'z ustozi ma'lum yo'llini tanlashidan to mustaqil ijrogacha bo'lgan davri kiradi. Bularni quyidagicha ifodalash mumkin:

Ijrochilik sirlarini o'zlashtirish.

- a) cholg'u ijrochiligi.
- b) xonandalik.

Ovoz talqinidagi qonuniyatlar.

- a) ovozni ravon chiqarish.
- b) nafas yo'li.

So'zning aniq talaffuzi.

So'z bilan ohangni mutanosib ijro etish.

Ijroda o'zini tutish.

Repertuar tanlash.

Musiqadagi asosiy narsa, bu - ijo amaliyoti bo'lsa, yuqorida keltirganimiz saboq jarayoni, buning mukammallikka erishilishidagi mezoni bo'ladi. "Ijrochilikda har bir tovushning mukammal talqini (bizning tushunchamizda insonga yoqadigan, sof, chiroyli va latif tarannumi) - uning musiqiy balandligini aniqlab, amaliy voqe'lik bilan bog'lab sirtqi va tashqi his orqali kuylashdan iborat". Demak, ijrochilik mezonidagi amallarni ustoz-shogird an'analari asosida o'zlashtirish xonanda ijrosini mukammallik va mumtozlik kasb etishida asos bo'lar ekan. Zero, xonandalikda cholg'u sozni bilish, ovozni ravon yo'naltirish, to'g'ri va mutanosib nafasga ega bo'lish, so'z talaffuzini aniq va burroligiga erishish, so'z bilan kuyning birga talqinidagi nafosatini namoyish etish, ashulaga mos va mumtozlikka xos harakat qilish, o'ziga va ovoziga mos ashula tanlay bilish kabi xususiyat va sifatlarni o'zida mujassam etish muhimdir.

Shundan kelib chiqib, qayd etish lozimki xonandalikni tanlagan har bir kishi bu amallarga iloji boricha o'z ijrosida erishishi lozim. Ayniqsa, toza kuylash, so'z talaffuzining burro va ravonligi, nafasning mutanosibligi hofizlikning asoslaridan hisoblanadi. Shu bois uzoq o'tmishdan o'zida bunday xususiyatlarni mujassam etgan sanoqli xonandalarning nomlari o'z zamonasining faxri, mumtoz musiqanining bilimdoni, yoshlarning ustozi, merosning davomchisi sifatida tarix zarvaraqlariga bitilgan. Xalqimiz tomonidan ardoqlab kelingan. Ularni milliy unvonlar bilan taqdirlaganlar. Bu bilan ijrochi-xonandalarning darajalariga baho berilgan. Bu yo'lni munosib davom ettirish esa, zamonamizning iqtidorli, chiroyli va latif ovozlariga ega bo'lgan umidli yoshlariga bog'liqdir. Ularning ilmg'a, bilimga va merosimizga bo'lgan munosabatlari muhimdir. Oliy va o'rtalik maxsus o'quv tizimlarida an'anaviy xonandalikni o'rgatish o'quv dasturlariga kiritilgani, bu oliy "maqom" dan darakdir. Shu o'rinda mumtoz xonandalikda, oxirgi paytda yoshlar ijrochiliga kirib kelgan ayrim ijro usullar xususida fikr yuritmoqchimiz. Zero, xonandalikda ijro mezonini belgilaydigan omil bu janrdir. Shu nuqtai nazardan an'anaviy xonandalik bu - maqom va maqom yo'llariga xos musiqiy asarlarning ijrochiligi desak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Mumtoz musiqa ijrochiligidagi har bir jarayon o'z qonuniyatlarini va an'analariga ega. Bu amallar orasida boshlang'ich xonandalar uchun eng zarur deb hisoblanamiz bu-nafasni to'g'ri olish jarayoni va ijroni "shiddat" bilan amalga oshirishdir.

Ma'lumki, musiqiy asarlar, ichki tarkibdan bir qator kuy bo'lakchalaridan tashkil topadi. Har bir kuy bo'lagi ham alohida o'chamda tugallangan hisoblanadi. Shu bois ularni yana bo'laklarga ajratish ijro uchun unchalik chiroyli emas. Iloji boricha bo'laklar o'z o'rniда to'liq bir nafasda ijro etilishi

lozim. Ayniqsa ashula yo'lidagi asarlarda shuni ham unutmaslik kerakki, ashulada bir jarayon emas balki uch jarayon xuddi shu kuy bo'lagini tashkil etadi. Birinchidan, asarning kuyidagi bo'lak; ikkinchidan, so'z matnidagi jumla bo'lagi va nihoyat uchinchisi so'zning aruzdagi qofiyasi (ruknlari). Shuning uchun ashula ijrochiligidagi bu mezonlarni to'g'ri amalgalashdir. Nafas bo'lingan paytda asarni turli xususiyat va sifatiga putur yetishi ehtimoli mavjuddir. Shu bois bo'lsa kerak Ovro'pa xonandalik san'atida avvalo ijrochilik nafas olish uslubi ustida ishlanadi. Mumtoz xonandalik san'atida esa ustozlarga ergashiladi. Kuy bilan so'z jumlalariga rioya qilib ijro etiladi. Demak, an'anaviy xonandalikning ilk qadamlaridayoq ustoz-shogird an'anasi qanchalar muhimligi yaqqol ko'rinish turibdi.

Mumtoz xonandalik amalining eng muhim bosqichlaridan yana biri, bu - ijrodagi "shiddat" deb belgilash to'g'riroq bo'ladi. Chunki, bu omil ijrochiligidagi juda muhim ahamiyatga egadir. Maqomlarni shunchaki ijro etib bo'lmaydi. O'rganib ham turli tug'yonlarga berilib ham ijro etish noqulay. Maqomlar yuqorida keltirilgan kuy va so'z ma'nosidan kelib chiqqan holda, unda mujassamlashgan g'oya asosida shiddat (me'yor saqlab) bilan ijro etiladi.

Sodda qilib aytganda, ko'tarinki ruh bilan, yurakdan, ifodali va e'tibor bilan, bor imkoniyatini ishga solib xonish etishdir. Keyingi paytlarda mumtoz xonandalikda, ayniqsa ayollar ijrochiligidagi "xirgoysi" uslubidagi ovoz talqini ommalashdi. Aslida, ashula ijrochiligidagi xirgoysi faqat ustozlar tomonidan ashula o'rgatish paytida ko'proq qo'llanilgan. Haqiqiy ijro paytida to'liq ovoz bilan kuylash taqozo etilgan. Lekin, bu uslubni taniqli ustoz xonanda Barno Is'hoqova ashulaning dinamik xususiyatlarni yorqin ifodalashda qo'llay boshlangani va unga yoshlarning ergashgani sabab, ana shu holatning guvohimiz. An'anaviy xonandalikni kasb etuvchilarga eslatish lozimki, xirgoysi o'rganish va o'rgatishda qo'llanilgan talqin uslubidir. Ijroda haqiqiy tabiiy ochiq ovoz bilan kuylash mumtoz xonandalikning ahamiyatli tomonlaridan hisoblanadi.

Xonandalik san'atining tabiiy jarayon bilan bog'liq, muhit va muxlis, shinavandalar bilan bog'liq sirlari ko'p. Shu bois xonandalik san'ati vohaviy, janr, shaxsiy kabi xususiyatlarni bilan to'lib toshgan. Har bir yangi ijro uslubiy yo'li bunyod etilganda xonandalikning yangidan-yangi qirralari kashf etildi. Bu esa ramziy ma'noda ma'naviyat bulog'i ekanligidan dalolat beradi.

QO'LLANMAGA KIRITILGAN ASARLARGA QISQACHA SHARHLAR

Qo'llanma tarkibidan 16 ta asar joy olgan. Unga kiritilgan asarlar sodda, xalq yo'lidagi namunalardan tortib, o'tmish zabardast bastakorlarining yirik musiqiy namunalarigacha kiritilgan. Asarlarning turli darajadagi imkoniyatlariga egaligi, xonandalik san'atini o'rganuvchilar uchun qulaylik yaratadi. Shu bois biz bu asarlar xususidagi xonandalarimiz bilishi lozim bo'lgan ayrim ma'lumotlarni keltirishni lozim deb bildik. Zero, asarni o'rganuvchi har bir xonanda uning tarixi, ijodkori, so'z muallifi xususidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi foydadan xoli emas.

"Ra'nolanmasun" - o'zbek musiqasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan bastakor, xonanda, sozanda, ustoz, akademik Yunus Rajabiy qalamiga mansub. Bastakor ushbu asarni G'oziy muxammasi asosida mumtoz yo'lda yaratgan. Ashula O'zbekiston xalq artisti Orif Alimaxsumov ijrosidan notaga olingen.

"Aylagach" - bastakor Xolxo'ja To'xtasinov musiqasi, Navoiy so'zi bilan ijro etiladigan ushbu musiqiy namuna an'anaviy ijrochilikda keng ommalashgan, ayniqsa ayol ovozlari ijrosiga juda xosdir. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Matluba Dadaboyeva ijrosidan notaga olingen.

"Toshkent Suvorasi" - suvora janri Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasida keng ommalashgandan so'ng, hofizlar bu vohaga xos namunalarni yarata

boshlaganlar. Ushbu musiqiy namuna shulardan biri bo'lib Toshkent suvorasi nomini olgan va Farg'ona-Toshkent yo'llarida yaratilgan Suvora namunasidir. Juda nafis va o'ziga xos murakkab bu asar Mashrab Ermatov ijrosidan notaga olingen.

To'plamning muallifi yaratgan ikki musiqiy namuna ham kitobga kiritilgan. Bular "Uzoqda" Charxiy so'zi va "Janon ketar" Toxir so'zi. Bu ikki asar M.Ermatov tomonidan yaratilib va uning ijrosidan notaga olingen. "Qalandar I" ("Soyai") - O'zbek xalq musiqa merosida "Qalandar"lar nomi bilan mashhur turkumning birinchi asari. Xalq orasida ikki nomda yuritiladi: "Soyai" hamda "Qalandar I". Bu asar Farg'ona vodiysisida keng ommalashgan ashulalardan biri hisoblanadi. "Qalandar" Muqimiy so'zi bilan (muxammas) ijro etiladi. Lekin, hofizlar unga mos so'zlar ham qo'yib ijro etishgan. Amaliyotda bir qator ijro talqini mavjud. (Masalan F.Mamataliyev). Barcha ijroning o'z jozibasi bor, lekin, xalq hofizi Ochilxon Otaxonov ijrosi asliga mosligi xususida ustoz hofizlar ko'p aytishadi. Shu bois to'plamga Ochilxon Otaxonov ijrosidan notaga olingen. Yunus Rajabiy nota yozuvida "zarbul qadim" usulida ijro etilgan varianti keltirilgan.

"Fig'on" - xalq qo'shig'i asosida "Fig'on va Shari" musiqali dramasiga bastakor T. Jalilov

tomonidan ishlangan musiqiy namuna. Xalq so‘zi asosida, Orif Alimaxsumov ijrosidan notaga olingan.

“Bo‘lmasa” - taniqli bastakor, ustož san’atkor xalq hofizi Jo‘raxon Sultonov musiqasi. Habibiy so‘zi bilan J.Sultonov ijrosidan notaga olingan.

“Naylayin” - J.Sultonov musiqasi, Sobir Abdulla so‘zi. Xalq xofizlari Jo‘raxon Sultonov va Ma’murjon Uzoqovlar hamnafasligidagi ijrodan notaga olingan. “Bo‘lmasa” va “Naylayin” musiqiy namuna Farg‘ona vodiysi ijro an’analari asosida yuzaga kelgan bo‘lib Jo‘raxon Sultonov ijrochilik maktabining yorqin namunalaridan hisoblanadi. Asar, Farg‘ona vodiysining xarakterli janrlaridan bo‘lmish “Katta ashula” uslubi asosida yaratilganligi yaqqol sezilib turadi. Shu bois ijroda ustalik va shahdamlilik talab etiladi.

“Yigitlikda” - J.Sultonov musiqasi, Qo‘qonlik shoir Adoyi so‘ziga yozilgan. (Amaliyotda bu g‘azal Navoiyniki deb ham yuritilgan joylari ham bor. Shu bois alohida qayd etmoqchimiz). Bastakorning mumtoz uslubda yaratgan asarlaridan biri. Ijrochilik amaliyotida, an’anaviy xonandalar orasida keng ommalashgan, salobatli asarlar qatoriga kiradi. Taniqli ustož xonanda Rasulqori Mamadaliyev ijrosidan notaga olingan.

“Qoshi yosinmu deyin” - taniqli bastakor, xalq hofizi Orifxon Hotamov musiqasi, Navoiy g‘azali. O.Hotamov ijrosidan notaga olingan. Ushbu asar zamonamiz mumtoz ashulalarining yorqin namunasi bo‘lib, an’anaviy xonandalar repertuaridan joy olgan sevimli ashuladir.

“Ushshoqi Sodirxon” - Farg‘ona-Toshkent ijrochilik an’anasida o‘ziga xos ijro maktabini yaratgan Xo‘jandlik bastakor hamda hofiz Sodirxon Bobosharirov musiqasi, Jomiy so‘zi. Xalq hofizi ustož san’atkor, Sodirxon Hofiz ijro maktabining davomchisi hamda shogirdi Ma’rufxo‘ja Bahodirov ijrosidan notaga olingan.

“Yaxshiroq” - Farg‘ona vodiysining hozirgi zamonda eng ko‘zga ko‘ringan ustož san’atkorlaridan biri, taniqli bastakor, mohir sozanda hamda xonanda G‘ulomjon Hojiqulov ijodiga mansub. Bu asar mumtoz yo‘lda Habibiy so‘ziga bastalangan. Asar muallifning ijrosidan notaga olingan.

“Tamanno” - Qo‘qonlik ustož bastakor Muxtorjon Murtazoyev yaratgan ashula. Xalq orasida ommalashgan asar bo‘lib, bir qator taniqli xonandalar tomonidan ijro etilgan. Asar taniqli xonanda, O‘zbekiston va Tojikiston xalq artisti Jo‘rabek Nabiyev ijrosidan notaga tushirilgan.

RA'NOLANMASUN

G'oziy muxammasi
Yunus Rajabiy musiqasi
O. Alimaqsumov ijrosi

M.M. ♩ = 72

Bog' a - ro yuz - lan ki to

gul cheh - ra ra no - lan ma - sun

Sab - za - sin poy - mol qil

ra' - no - si ze bo - lan - ma - sun

Noz e - tib zul - sing - da - gi

sun - bul mu - ta ro - lan - ma - sun

O - ra - zing ko'r - sat - ki bu

gul - shan ta - mo sho - lan - ma - sun
 Qo - ma - ting ga jil - va - i
 to' - bi ta - man - no - lan - ma - sun
f
 Ey ki - yik ko'z - li sha - kar
 so'z - li qu - yosh yuz - li ni - gor
 Bo'l - sa ming jo - nim me - ning
 qil - sam ta - sad - duq jo - ni - vor
 Yo - shi - run lut - fing g'a - zab

ras - mi - ni ay lab o - sh(i) - kor
 Maq - sa - ding gar qat - lim er
 sa ay - la pin hon zin hor
 Zo - hir et ma bu ka - ram
 to xal - qi g'av - g'o - lan - ma - sun

Bog' aro yuzlanki, to gulchehra ra'nolanmasun,
 Sabzasin poymol qil, ra'nosi zebolanmasun,
 Noz etib zulfiingdagi sunbul mutarrolanmasun,
 Orazing ko'rsatki, bu gulshan tamosholanmasun
 Qomatingga jilvai to'bi tamannolanmasun

Ey kiyik ko'zli, shakar so'zli, quyosh yuzli nigor,
 Bo'lsa ming jonim mening, qilsam tasadduq jonivor,
 Yoshurun lutfing g'azab rasmini aylab oshkor,
 Maqsading gar qatlim ersa ayla pinhon, zinhor,
 Zohir etma bu karam to xalqi g'avg'olanmasun.

AYLAGACH

Alisher Navoiy g'azali
Xolxo'ja To'xtasinov musiqasi
Matluba Dadaboyeva ijrosi

M.M. ♩= 84

The musical score consists of eight staves of music for voice and piano. The key signature is one sharp (F#), and the time signature is common time (indicated by '4'). The tempo is♩= 84.

The lyrics are written below the vocal line:

Xus - ni or - tar yuz - da zul - fi

an - ba - raf - shon ay - la - gach

Sham' - i rav shan - roq bo' - lur to -

rin pa - ri - shon ay - la - gach

Yuz - ni gul - lar din be - zab - mu

biz - ni quir - bon ay la - di

Yo yu - zing - ga teg - di qon - lar(o)

biz - ni quir - bon ay - la - gach

Qon e - mas - kim

yop - di gul - gun hul - la jan - nat

xo - zi - ni

Ishq maq - du lin sha - hid ay

lar - da ur - yon ay - la - gach

Osh - kor ay - lab yu - zing ko'

zim - ni hay - ron ay - la di

A musical score for a vocal piece. The music is in G major, 2/4 time. The score consists of ten staves of music with lyrics written below each staff. The lyrics are in a non-Latin script, likely Korean, and are written in a cursive style. The music features various note values including eighth and sixteenth notes, and rests. The vocal line includes several melodic phrases with different rhythms and pitch patterns.

Yo - shu - run ol - di ko'n - gul ko' -
 zim - ni hay - ron ay - la gach
 Jon - da qo'y - g'och naq - di ish - qing
 qil - di ko'ng - lim - ni ha - lok
 O'l - tu - tur mah -
 ram - ni sul - ton ganj pin - hon
 ay - la - gach Ey Na - vo - iy
 ishq a - gar ko'ng - ling - ni maj - ruh

et - ma - di Bas ne - dur - kim
 qon ke - lur og' zing - din af - g'on
 ay - la - gach

Husni ortar yuzda zulfi anbarafshon aylagach,
Sham'i ravshanroq bo'lur torin parishon aylagach.

Yuzni gullardin bezabmu bizni qurban ayladi,
Yo yuzingga tegdi qonlar, bizni qurban aylagach.

Qon emaskim, yopdi gulgun hulla jannat xozini,
Ishq maqdulin shahid aylarda uryon aylagach.

Oshkor aylab yuzing ko'zimni hayron ayladi,
Yoshurun oldi ko'ngul ko'zimni hayron aylagach.

Jonda qo'yg'och naqdi ishqning qildi ko'nglumni halok,
O'lturur mahramni sulton ganj pinhon aylagach.

Ey Navoiy, ishq agar ko'nglingni majruh etmadi,
Bas, nedurkim qon kelur og'zingdin afg'on aylagach.

TOSHKENT SUVORASI

Muqimiy she'ri
Xalq kuyi
M. Ermatov ijrosi

M.M. ♩ = 88

The musical score consists of eight staves of music for voice and piano. The first staff shows a piano accompaniment with a bass line. The subsequent staves show the vocal line with lyrics in Russian and Uzbek. The lyrics are as follows:


Me - ni ishq o' - ti
bi - lan qiy - na - gan Ul pa - ri ka -
bi (yo - ra) ko' - zi qo - ra
dur Bu cha - man a - ro
na sa - no - ba - ru (yo - ra) Na su - man bi -
lan gu - li lo - la - dur

123KHENT SUOKRASI
 88 = 4 M.M.
 1. Emissa Ioseph

Na bu dahr e - kan
 zah - ri mor - siz
 O - chi - lur na
 gul la - ri xor -
 siz

Na bu dahr e - kan
 zah - ri mor - siz
 O - chi - lur na gul -
 la - ri xor - siz

Qo - li - bon o' - zum
 ma - na yor - siz
 Qo - li - bon o' - zum ma - na yor - siz
 (ey) Tu - nim ishq fi - g'on
 i - la no - la - dur (yor - yo -)
 ra yo - ru jo - ni - ma yo - ra)
 Tu - nim ishq fi - g'on i - la no - la
 dur



Treble clef, 4/4 time. The vocal line consists of ten staves of music with lyrics underneath. The lyrics are: ri - da qon yu - tib, Ham - ma vaqt, g'ayr i - la qo'l tu -, - tib, (O) Qo - la - man qa - rab, o' ta - dur ke - tib, Qo - la - man qa - rab, o' ta - dur ke - tib (o yo - ra), Me - ni bo'y la o't -

la - ra so - - la - dur
 (Yor - yo - - ra)
 (yo - ru - jo - - ni - ma - yo - - ra)
 Ma - ni bo'y - - la o't
 la - ra so - - la - dur

Meni ishq o'ti bilan qiyagan,
 Ul pari kabi ko'zu qoradur,
 Bu chaman aro na sanobaru
